

## ҲАҚ ЭВАЗИГА ХИЗМАТ КҮРСАТИШ ШАРТНОМАСИ

2022 y. «17» 8-oy

308-13-182-OB/2022-son

Beruniy tumani.

«Urganch Nodir Savdo» oilaviy korxonasi bundan buyon matnda «Bajaruvchi» deb ataluvchi nomidan rahbari A.Saidmuratov, faoliyatini amalga oshiruvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan, Beruniy tumani Obodonlashtirish boshkarmasi bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb ataluvchi nomidan D.Abdullaev faoliyatini ko'rsatuvchi, ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzishdi.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. «Bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan xizmat(lar)ni bajarib beradi, «Buyurtmachi» esa shartnomada ko'rsatilgan xizmat(lar) xaqini o'z vaqtida va belgilangan tartibda to'langandan keyin olish majburiyatini oladi.

№	Xizmat turi	O'Ichov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Xujalik avtomobilini metan gaz ballon va gaz uskunalarini urnatish	dona	2	65 000 000	130 000 000
	Jami:	X	X	X	<b>130 000 000</b>

### 2. Shartnoma summasi

130 000 000 (bir yuz uttiz million) sumni tashkil qiladi KKS bilan xisoblagan xolda.

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan xizmat turlari o'z vaqtida va sifatli bajarishni «Bajaruvchi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Bajaruvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

5.2. «Bajaruvchi»ning huquqlari:

5.2.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan xizmat turlari uchun oldindan xaq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni «Buyurtmachi»dan talab qilishga;

5.2.2. «Buyurtmachi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, ko'rsatilgan xizmat turini qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haklidir.

### 6. Taraflar majburiyatları

6.1. «Bajaruvchi» majburiyati:

6.1.1. Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioxqa qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga ko'rsatilayotgan(bajarilayotgan) xizmat turini bajarish va;

6.1.2. Tegishli darajada sifatli ko'rsatilmagan(bajarilmagan) xizmat turi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bajarilmagan xizmat turini 1 kun ichida qaytadan bajarib berish yoki ushbu shartnomaning 1.2-bandiga asosan sifatli bajarilmagan xizmat turi bahosini qaytarib berish.

6.2. «Buyurtmachi» majburiyati:

**6.2.1.** Xizmat turini qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun xujjalarda belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida xizmat turini qabul qilib olish;

**6.2.2.** Tegishli darajada sifatlari bo'lmasan xizmat turi aniqlangandan keyin, bu xaqda dalolatnomasi yozilib, 24 soat ichida «Bajaruvchi»ni ogohlantirish.

**6.2.3.** Maxsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash

### **7. Taraflar javobgarligi**

**7.1.** Xizmat turini ko'rsatish(bajarish) vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rivoja qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'liq qoplaydi va 0,1 % miqdorda penya to'laydi.

**7.2.** «Bajaruvchi» xizmat turini to'liq bajarmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga bajarilmagan har kun uchun xizmat turi bahosidan 0,2 % penya to'laydi.

**7.3.** Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi xizmat turi bajarilmagan bo'lsa, aybdor taraf 0,1 % miqdorida penya to'laydi.

**7.4.** Tegishli darajada sifatlari bajarilmagan xizmat turini qaytadan bajarishdan bosh tortsa, «Bajaruvchi» 20 % miqdorda jarima to'laydi.

**7.5.** Xizmat turi uchun «Buyurtmachi» o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa mablag' miqdoridan 0,1 % penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.

**7.6.** «Bajaruvchi» bajarilgan(ko'rsatilgan) xizmat turi uchun o'z vaqtida to'liq to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, «Buyurtmachi» xar bir o'tkazib yuborilgan kun uchun «Bajaruvchi»ga kelib chiqqan zarar uchun 50 % miqdorida jarima to'laydi.

**7.7.** Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

### **8. Korrupsiyaga qarshi talablar**

**8.1.** Ushu shartnomaning harbir tamoni óziga nisbatan qollanilgan barcha, chu jumladan O'zbekstan Respublikasi amaldagi qonunchiligi va normativ hujjatlari Korrupsiyaga qarshi shartlar va tegishli talablarni tushinishini ishontiradi va ularni amalga oshirishni kafolatlaydi.

**8.2.** Taraflar ushbu shartnoma amalda bolgan butun davr mobaynida Korrupsiyaga qarshi shartlar va tegishli talablarni bajarish majburiyatini oladi.

### **9. Fors-major holatlari**

**9.1.** Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmasan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon kilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

**9.2.** Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

### **10. Nizoni hal qilish tartibi**

**10.1.** Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

**10.2.** Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iktisodiy sud orgali hal qilinadi.

**11. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

**11.1.** Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.

**11.2.** Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

**12. Boshqa holatlar**

**12.1.** Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan.


**12.2.** Taraflarning boshqa talablari: \_\_\_\_\_

**12.3.** Shartnomaga ilova: \_\_\_\_\_

**13. Taraflarning yuridik manzilgohi va to'lov rekвизитлари**

**«BAJARUVCHI»**

«Urganch Nodir Savdo» oilaviy korxonasi  
Manzili: Urganch sh Mustakillik kuch 11 uy 5 pr  
TelG'faks: Q998-98-577-40-42; Q998-98-577-40-42  
hG'r: 2020800010023152200  
INN: 302635513  
OKONX: 71150  
Bank: Savdogarbank Xorazm filiali  
MFO: 00552



Raxbar

A.Salimuratov

**«BUYURTMAChI»**

Beruniy tumani Obodonlashtirish boshkarmasi  
Manzil: Kat kuchasi rakamsiz uy  
Tel: 97-505-14-30  
ShXV: 100022860352077065200110062  
INN: 204710460  
Uz.R.Moliya vazirligi gaznachiligi  
xG'r: 23402000300100001010 INN: 201122919  
MI:O: 00014 Markaziy bank Toshkent



Raxbar

D.Abdullayev



Tayyorladi: Bosh xisobchi U.Yusupov



## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi va mazmuni:** Beruniy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi raxbari D.Abdullayev va Urganch Nodir Savdo oilaviy korxona raxbari A.Saidmuratov bilan 130 000 000 so'mlik xo'jalik avtomobilini metan gaz balon va gaz uskunalarini o'rnatish to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**  
Beruniy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 16 avgust kuni markazga yuborilsin. GP28300265

**4. Xulosa:** Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat Xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son qonuni hamda amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq

**Beruniy tumani yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsult:**

2022 yil «17» avgust



**Sh.Qadirov**



Товар материал захираларини хамда ишларини (хизматларини) сотиг билиш бүйича энг яхши  
таклифларни танлаб олиш бүйича ўтказилган комиссияның З-сонли мажлис  
**БАЁННОМАСИ**

Беруний тумани

“17” Август 2022 йил

Комиссия раиси:  
Ш.Бабаниязов  
Комиссия аъзолари:  
Ш.Юлдашев  
У.Юсупов  
К.Карлиев  
Х.Ашираев  
А.Саимов

**КУН ТАРТИБИДА**

Танлов комиссия котиби танлов комиссиясига куйидаги маълумотларни берди:

Ушбу энг яхши таклифни танлаб олиш ободонлаштириш бошқармаси бюджет маблаглари хисобидан  
Хужалик автомобилини метан газ баллон ва газ ускуналари урнатиш ишларини амалга ошириш  
режалаштирилган.

Ўзбекистон Республикаси 2021-йил 22-апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида”ги Низомнинг  
(Кейинги ўринларда-Низом) 58-моддасига мувафиқ энг яхши таклифни танлаб олиш ўтказилиши хақидаги  
порталида (<http://dxarid.uzex.uz>) эълон танлов қатнашувчиларининг қабул килиш муддати якунидаги 5 (беш) иш  
куни олдин давлат буюртмаси томонидан шахсий кабинет орқали 2022-йил 04-август куни  
№22110012132749-сонли Лот бўйича ва 2022 йил 12 август кунги №132749 сонли баённома бўйича хеч кандай  
эътиroz келиб тушмади.

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Конун талабларига ва юкорида курсатилган  
маълумотларни хисобга олиб танлов комиссияси

**КАРОРКИЛАДИ:**

1. Беруний тумани Ободонлаштириш бошқармасига карашли Хужалик автомобилини метан газ баллон  
ва газ ускуналари урнатиш ишларини амалга ошириш бўйича ўтказилган танлов хужжатларидан хамда танлов  
шартлари бўйича энг яхши таклифларни таклиф килган ва танлов голиби деб “Урганч Нодир савдо” оиласи  
корхонаси 130 000 000 (бир юз уттиз миллион) сум (ККС солиги билан бирга) топилсин ва шартнома тузилсин.

2. Танлов голиби танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган тақдирда шартнома тузиш  
хукуки кейинги катнашувчи (резерв) килиб ЧП “Ихлосбек Голд” белгилансин. Бунда голиб катнашувчи таклиф  
килган суммасидан ошмаган микдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб куйилсин.

3. Низом талабларига мувафиқ танлов қатнашчиларнинг таклифларни кўриб чиқиши хам баҳолаш  
муддати таклифлар бериш куни тугашидан 10 (ўн) иш кунидан ошиб кетиши мумкин емаслиги маълумот учун  
қабул килинсин.

4. Ободонлаштириш бошқармаси бош хисобчиси У.Юсупов танлов якунни бўйича голиб билан шартнома  
хужжатларини тайёрлаш хамда шартнома тузилгандан кейин З иш кун ичига тегишли ахборот порталига  
жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссияси котиби Ш.Юлдашевга ушбу танловга тегишли барча хужжатларни белгиланган  
тартибда сакланишини таъминлансан.

Комиссия раиси:

Ш.Бабаниязов

Комиссия аъзолари:

Ш.Юлдашев

У.Юсупов

К.Карлиев

Х.Ашираев

А.Саимов